

EKSPERTIZA O'TKAZISH BO'YICHA

39-01-2022-sonli SHARTNOMA

Urganch sh.

31.01.2022 y.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi Xorazm filiali (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 7 yanvardagi 16/04-04-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor N.Bekchanova bir tomondan va Yangibozor tuman Xalq ta'li bo'limi (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan hujjat asosida faoliyat yurituvchi mudira G.Jumanova, ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: «Xorazm viloyati Yangibozor tumani 25-son maktab to'siq devorlarini joriy ta'mirlash» smeta xujjatlarini ekspertizasini o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 15 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining 31.01.2022 yildagi №31121 sonli murojaati ("Shaffof qurilish" MAT orqali) asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

II. SHARTNOMA BAHOSI BA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxлари O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$270\ 000 * 2 = 540\ 000 + 15\% \text{ QQS}$

Jami to'lovga: 621 000 (Olti yuz yigirma bir ming) so'm, shu jumladan QQS 15% - 81 000 (Sakson bir ming) so'm.

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorini oldindan to'laydi, qolgan 70 % miqdorini ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanganidan keyin 10 (o'n) kun ichida to'lovni amalga oshiradi. Yoki Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'laydi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlagha va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Urganch shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlarini yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi Xorazm filiali o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xarakterlarni bajarish shart.

Tomonlar ushbu xarakterlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Xorazm filiali xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-xarakterlari, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Xorazm filiali ishonchli telefoni 62 22 8 56 07.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi konun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.3. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar holatlar (yengib t tarafdin b tarafdin b tarafdin b tarafdin b tabiiy ofatlar, yon muddatlari fors-m o'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan la majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun lida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi: - ya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala tomon bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major ligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-ma ib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Shartnomani imzolash sanasi muqaddimada ko'rsatiladi.

8.2. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

8.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi xuzuridagi
"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Xorazm filiali

Manzil: 220100, Urganch sh., P.Maxmud ko'ch., 46A-uy, 15-x.

H/R: 2020 8000 2008 8257 3014

INN: 305 550 214 OKED: 71120

BANK: "Turon bank" Urganch filiali

2551 Telefon: 62-2285607



N.A. Bekchanova

S. Egamberdiev

Buyurtmachi:

Yangibozor tuman Xalq ta'limi bo'limi

Manzil: Al Xorazmiy ko'cha 1-uy

X/r: 100022860332367092100075034

INN: 201086171

Bank: Markaziy bank

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

Xr: 23402000300100001010

INN: 201122919

Mudira

G. Jumanova.

Yurist

